



TALABALAR O'RTASIDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Baltayeva Anadjan Tadjibayevna

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14738931>

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda zamonaviy innovatsion texnologiyalar orqali oliy ta'limda rus tili darslarini olib borish yo'llari va interfaol metodlar talablarning bilimlarini yanada mustahkam egallashida, nutq madaniyatini oshishida, savollarni to'g'ri tuzishida, o'z fikrini bayon etishidagi ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, innovatsiya, Insert usuli, "Semenar musobaqa", "Aql charxi", "Charxpalak" metodi

Yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarida bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lim tizimi orqali respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ta'limda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi muhimdir. Shuning uchun ham barcha ta'lim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim orqali intellektual mulkni tayyorlash va intellektual mulk tizimini innovatsion faoliyat ko'rinishida amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Hozirgi davr o'quvchisi dunyoqarashi keng, erkin fikrlovchi, voqelikka to'g'ri baho bera oluvchi, o'tkir zehni, mustahkam irodali, qisqa qilib aytganda, yuksak itelluktual kuchga ega bo'lib shakllanishi lozim. Buning uchun esa ta'lim tizimiga yuqorida bayon qilinganiday, yangi innovatsiyalarni ta'sis etish zarur va shartdir. Ta'lim oluvchilar sust tinglovchi bo'lmay, ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi zarur bo'ladi. Ushbu jarayonda albatta integratsiyalarning roli katta. Integratsiya ijtimoiy-psixologik aspekt bo'lib, biror-bir yangilikni ijtimoiy sohaga tezkorlik bilan tatbiq etishda ta'lim jarayonini jadallashtirish demakdir. Innovatsiyalar esa faoliyat jarayonida turli ijtimoiy-psixologik to'siqlarni engish uchun shart-sharoit yaratib boradi. Bundan tashqari, innovatsiyalarni tatbiq etish jarayonida shaxsning yo'nalishi va ma'naviy-axloqiy sifatleri ham ma'lum darajada e'tiborga olinadi. O'quvchilarni yangiliklar qabul qilish va u bilan ishtirok etishga tayyorgarligini shakllantirish, yangilikni qabul qilish qobiliyatini o'stirish maqsadida, bilish jarayonini faollashtiruvchi ijtimoiy psixologik usullardan foydalanish lozim. Bunday usullarga psixologik treninglar, rolli o'yinlar va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Interfaol usullar orqali ta'lim samaradorligi oshadi, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlik; talabalarda erkin ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanishi va shakllanadi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Innovatsion texnologiyalarning asosiy maqsadi - mavzuning mohiyatini yanada ochib berish, o'quvchilarda fanga nisbatan motivni hosil qilishdir. Ular juda xilma-xildir. Ulardan ba'zilariga to'xtalib o'tamiz:

Insert usuli: tushunishni kuzatish vositasidir. Insert- bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert- bu matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab quvvatlash uchun kuchli vositadir. O'quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo'yib boradi, ular esa quyidagi ma'nolarni bildiradi: V - bilganlarimni tasdiqlaydi + - yangi axborot - bilganlarimga zid keladi? - meni o'ylantirib qo'ydi.

"Semenar musobaqa" texnologiyasi darslarini tashkil etish ko'p yildan beri ta'limda keng qo'llanib kelinadi. Bu usul talabalarining qiziqishini va faolligini oshiradi. Bu usulga tayyorgarlik ko'rish uchun talabalar oldindan ogohlantiriladi va mavzu e'lon qilinadi. Talabalar guruhi 2 kichik guruhchalarga bo'linadi. Ularning har biri mavzu bo'yicha savollar tayyorlab kelishi lozim. Semenar boshida talabalar musobaqa shartlari bilan tanishtiriladi. Bunda faqat javoblar uchun emas balki savollarni to'g'ri va aniqligi uchun va qo'shimcha tuzatishlar uchun ham ma'lum ballar belgilanadi. Guruh talabalarining barchasi faol



qatnashishlari uchun esa minus (-) ballar ham ko'rsatilishi mumkin, masalan, +3 dan -3 gacha noto'g'ri javoblar va savollar uchun ballarni ayirish usuli ishlatilishi mumkin. Musobaqa davomida doskaga to'plangan ballar yozib borilishi mumkin. Seminar oxirida g'olib guruh qatnashchilari qo'shimcha ballar bilan rag'batlanishi mumkin. O'qituvchi esa jarayonini boshqaruvchi sifatida juda hushyor va sinchkovlik bilan javoblarni eshitib, har bir talabaga baho qo'yib borishi lozim. Bu usul bilimlarni yanada mustahkamroq egallanishiga, nutq madaniyatini oshishiga, savollarni to'g'ri tuzilishiga, o'z fikrini bayon etishga o'rgatadi. Eng muhimi esa, taladalardan mustaqil bilimlarni egallash, yangiliklarni qidirish, mavzuga ijodiy yondashish hususiyatlari oshadi. O'rganilayotgan mavzu har tomonlama tahlil etiladi va hayotiy jarayonlar bilan bog'lanadi. Bunday innovatsion texnologiyani dastlabki ko'rinishlari oliygohlarda qo'llanilsa yuqori natijalarga erishsa bo'ladi.

"Aql charxi" metodida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutq ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bu metodni qo'llaganda ikki yoki uchta talabadan iborat guruhchalar ishtirok etadi. Birinchi o'quvchi mavzuga doir terminlardan birini aytadi. Ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan terminni qaytaradi va o'zi ham bitta termin aytadi. Uchinchi o'quvchi avvalgi ikkita terminni qaytaradi va bitta termin qo'shib aytadi. Yana birinchi o'quvchiga navbat keladi, u ham avvalgi uchta terminni qaytaradi va o'zi bitta termin qo'shib aytadi. Qaysi o'quvchi adashib ketsa yoki aytilgan terminlardan qaytarib aytsa, o'yindan chiqadi. Shu tariqa o'quvchilar guruhi davom etadi. O'qituvchi metodni qo'llashdan maqsadi aniq bo'lishi va o'quvchilarning qaysi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga e'tibor qaratilishi muhim.

"Charxpalak" metodi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib, ularga topshiriqlar yozilgan varaqa tarqatiladi. Ushbu metod orqali bolalarni o'tilgan mavzularni yodga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'zini-o'zi baholashga o'rgatadi hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha tinglovchilarni egallagan bilimlarini baholashga qaratiladi. Ushbu metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil bayon etishga, guruh bo'lib ishashga, boshqalar fikrini hurmat qilishga o'rganadilar. O'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv fanining o'ziga xos tomonini, joy va ehtiyojini, hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak.

Talabalarining so'z boyligini oshirishda, tafakkur sarhadlari, ya'ni davlat tilidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda o'zbek va jahon adabiyoti namunalarining qiyosiy tahlilini qay yo'sinda olib borilishiga bir nazar qaratsak. Masalan: Alisher Navoiyning "Lison-ut tayr" dostonidagi "Hikoyat" va L.N. Tolstoyning "Urush va tinchlik" epopeyasidan olingan parchalarni qiyosiy tahlil etishda "Aqliy hujum" "Idrok xaritasi", "Insert", "FSMU", "Klaster" kabi texnologiyalardan foydalanishi mumkin. Darsda qo'llangan bu usullar talabalarining erkin fikrlashiga, so'zning mohiyati va ta'sir kuchini his qilishlariga zamin hozirlaydi. Talabalarda badiiy matn bilan ishlash jarayonida ko'z xotirasi orqali ularda orfografik me'yor ham shakllana boradi.

O'quv yurtlaridagi ayrim rus guruh talabarlari yetarlicha o'zbekcha so'zlarni bilganlari, ma'lum mavzuda shablon asosida suhbatlasha olganlari holda erkin muloqotga kirisha olmaydilar. Buning sababi shundaki, talabalar, avvalo, nutqiy vaziyatni his eta olmaydilar. Qolaversa, ular madaniyatlararo kompetensiyaga ham ega emaslar. Talabalar o'zbek adabiyoti namunalari bilan badiiy matn sifatida yaqindan tanishsalaragina, ularda madaniyatlararo kompetensiya shakllanishi mumkin. Shundan keyin ular o'zbekcha so'zlarnigina emas, balki ayni so'zlar ishlatiladigan vaziyatni ham, o'zbekcha so'zning zimmasiga yuklangan vazifani ham his eta olishadi.

Xulosa qilib aytganda, qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar innovatsion texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallashini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shartsharoitlarni yaratishi;



- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini yangi bosqichga ko'taradi, o'quvchilarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirib, ularni ko'nikma va malakalar holiga keltirishni tezlashtiradi. Eng muhimi, innovatsion texnologiyalarni o'quvchilarning ma'naviyati shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadiki, bu millat yoshlari shaxsiyatining barkamolligiga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'quvchilarida bilim hosil qilishning o'zi bilan kifoyalanib qolmasligini ko'zda tutadi. Chunki, bilim berish ta'lim jarayoni oldidagi maqsadlarning eng birlamchisidir

Adabiyotlar

1. Shodmonova Sh.S. va boshq. Pedagogik texnologiyalar.- T.: Fan va texnologiya,2011. – 148 b.
2. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2009.- 164 b.
3. Baltayeva, I. T., Baltayeva, A. T., Axmedova, M. A., Axmedova, M. M., & Kazaqov, R. T. (2024). USE OF VIRTUAL LABORATORIES TO CONDUCT FOOTBALL TRAINING. Modern Science and Research, 3(2), 709-718
4. Boltayeva, I. T., Boltayeva, A. T., Axmedova, M. A., Axmedova, M. M., & Kazaqov, R. T. (2024). PERIODS OF PRODUCTION EDUCATION. THE PERIOD OF INITIATION, PREPARATION, ACQUISITION AND COMPLETION OF THE PROFESSION. Modern Science and Research, 3(2), 561-569.
5. A.T.Baltayeva. Bo'lajak adabiyot o'qituvchilarini o'quvchilarnitanqidiy baholashga o'rgatishga tayyorlash metodikasi. O'quv q'ollanma.Toshkent, "LESSON PRESS" nashriyoti, 2023, 105- bet.
6. Baltayeva I., Baltayeva A., Tursunova N. Unique reproduction is away from revealing literary success. Vidyabharati international interdisciplinary research journal TURKEY. ([http://www.viirj.org/specialissues/indexing : ESCI \(Web of Science\) 2021/SP2108/SP2108.html](http://www.viirj.org/specialissues/indexing%3A%20ESCI%20(Web%20of%20Science)%202021/SP2108/SP2108.html))
7. Baltayeva I. Drip the role and importance of tradition in literary succession (On the example of the work of Abdulla Qahhor). South Asian Academic Research Journals (SAARJ). ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. Impast Factor-SJIF-2021.10.
8. Baltaeva A.,T. Amanlikova N.R. Computer interaction with students in language teaching //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – T. 2432. – №. 1. – S. 060025.
9. Baltayeva A. T. Designing lessons aimed at teaching students to critically evaluate the personality of the heroes of the work of fiction //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – S. 947-952
10. Baltayeva A. T. Shaping the critical thinking of pupils at literature lessons //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 7. – №. 10. – S. 6-8.
11. Baltayeva A., Xalikberdiyeva N. FORMATION OF CULTURAL COMMUNICATION IN RUSSIAN-SPEAKING GROUPS //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 20.
12. Boltayeva O., Pirmazarova S. THE EXPRESSION OF TRUE HUMAN FEELINGS IN ALISHER NAVOI'S EPIC" FARHAD AND SHIRIN" //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 24.
13. Boltayeva O. ALISHER HAVOIY ASARLARI ORQALI O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH //"Science Shine" International scientific journal. – 2023. – T. 6. – №. 1.
14. Baltayeva A., Xalikberdiyeva N. FORMATION OF CULTURAL COMMUNICATION IN RUSSIAN-SPEAKING GROUPS //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 20.
15. Baltayeva A. T. SHE'R KISHI RUHINING SEROHANG SOZI //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 15. – S. 81-84
16. Boltayeva I. T. et al. PERIODS OF PRODUCTION EDUCATION. THE PERIOD OF INITIATION, PREPARATION, ACQUISITION AND COMPLETION OF THE PROFESSION //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – S. 561-569.
17. AnadjanTadjibayevna B. Importance of Distance Education Today //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 46. – S. 191-194.



18. Baltayeva A. T. Teaching students to critically evaluate the characters of a work of art in literature classes. "Language and literature education". 2021. Number 5. 294-300 p.
19. Baltayeva A. T. Students to the Heroes of the Artistic Work Non-Traditional that Teaches Critical Evaluation Lessons. International Journal on Orange Technologies (IJOT) VOL. 3 NO. 4 (2021): IJOT 432-434.www.iupr.ru
20. Baltayeva O. T. Development of reading activity by teaching students to critically evaluate the characters of the literary work. Journal of Pedagogy 2021. Issue 6. 54-57 b.